



UDK:37.02:378.147:373.3

*Nargiza G'ANIYEVA,*

*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv va texnologiyalar universiteti o'qituvchisi*

*E-mail: ganiyevanargiza553@gmail.com*

*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti katta o'qituvchisi, PhD Z. Nazarova taqrizi asosida*

## **BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH – PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

Аннотация

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish – dolzarb pedagogik muammo yuzasidan batafsil masalalar tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Pedagog, sinf, mustaqil ish, innovatsion, yondashuv, ta'lim, samaradorlik, ko'nikma, metodlar, axborot texnologiyalar, bilim, yondashuv.

## **СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ САМОСТОЯТЕЛЬНОЙ РАБОТЫ У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ КАК ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ПРОБЛЕМА**

Аннотация

Проанализированы подробные вопросы по совершенствованию методики развития навыков самостоятельной работы у будущих учителей начальных классов - актуальной педагогической проблеме.

**Ключевые слова:** Педагог, класс, самостоятельная работа, инновационный подход, образование, эффективность, навыки, методы, информационные технологии, знания, подход.

## **IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING INDEPENDENT WORK SKILLS IN FUTURE PRIMARY SCHOOL TEACHERS AS A PEDAGOGICAL CHALLENGE**

Annotation

This paper provides a detailed analysis of issues related to a pressing pedagogical problem: improving the methodology for developing independent work skills in future primary school teachers.

**Key words:** Educator, classroom, independent work, innovative approach, education, effectiveness, skills, methods, information technology, knowledge.

**Adabiyotlar tahlili.** Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari doirasida, ayniqsa, boshlang'ich ta'lim sohasida malakali, bilimli va mustaqil fikrlaydigan o'qituvchilarni tayyorlash masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi nafaqat bilim beruvchi, balki tarbiyachi, ijodkor va motivator sifatida ham faoliyat olib borishi kerak. Bu esa, bo'lajak pedagoglarning o'z ustida ishlash, mustaqil ravishda yangi bilimlarni egallash, o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sishga intilish ko'nikmalariga ega bo'lishini talab qiladi.

Hozirgi davrda ta'lim jarayonida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish masalasi dolzarb ilmiy-pedagogik muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari uchun bu ko'nikmalar nafaqat kasbiy tayyorgarlikning ajralmas tarkibiy qismi, balki ularning kelajakdagi ta'lim-tarbiyaviy faoliyatini samarali tashkil etishning asosiy omilidir. Shuning uchun ham mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga doir metodik yondashuvlarni takomillashtirish masalasi zamonaviy pedagogika fanining markaziy yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda [1].

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi jahon pedagogikasida ham, O'zbekiston ta'lim tizimida ham dolzarb yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xorijiy tajribalarda mustaqil ta'lim, o'z-o'zini rivojlantirish, shaxsiy mas'uliyat va refleksiya kabi tamoyillar pedagogik jarayonning asosiy tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Shu jihatdan, bo'lajak pedagoglarda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish nazariyasi asosan konstruktivizm,

refleksiv pedagogika va faoliyat yondashuvi g'oyalari bilan uyg'unlashadi.

Shu nuqtai nazardan, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish muhim pedagogik muammo sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada mazkur masalaning nazariy va amaliy jihatlarini tahlil qilinadi, mavjud muammolar aniqlanadi va ularni bartaraf etish yo'llari taklif etiladi.

Ilmiy adabiyotlarda mustaqil ish ko'nikmalari turli jihatdan o'rganilgan. Pedagogik adabiyotlarda mustaqil ish – bu talabani o'qituvchi rahbarligida yoki o'z mustaqil tanlovi asosida bilim olish faoliyati sifatida talqin etiladi (Sharipova, 2021).

Yevropa ta'lim tizimida "Self-directed learning" va "Autonomous learning" tushunchalari orqali talabani mustaqil bilim egallashi asosiy tamoyillardan biri sifatida qaraladi (Knowles, 1975; Candy, 1991). Bu yondashuvlar bizning milliy ta'lim tizimimiz uchun ham moslashtirish imkoniyatiga ega.

Mahalliy olimlardan G'. Jo'raev, N. Aminova, A. Xamroqulova, A. Qodirovlarning ilmiy ishlari bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan.

Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga nazar soladigan bo'lsak, A.K.Markovanning ta'kidlashicha didaktik kompetentlik o'qituvchi mehnat faoliyatining asosiy pedagogik jihatlarini tahlillar asosida yoritib berish va o'z ustida ishlash hamda egallagan bilim, ko'nikma, malaka va

amaliy faoliyatning natijasi sifatida yuzaga chiqishi mumkinligi kabi masalalarga to'xtalib o'tgan [2].

B.S. Abdullayevaning ilmiy ishlarida quyidagi mulohazalarni bayon etadi: "Boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy salohiyati va ma'lumot darajasi, bolalar psixologiyasi, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim metodikasini bilishi boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarida zarur ko'nikmalarni shakllantirish, boshlang'ich ta'lim sifat samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish, o'qitishning zamonaviy usul va vositalarini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiqdir" [3].

Mustaqil jarayon tadqiqotlari ish bilan ko'p sonli olimlar shug'ullandilar, mustaqil ishning roli quyidagilarda ochib berilgan: Mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda (A.Алексюка, И.Герде, А.Дистерверга, Д.Дюн, А. Журавская, И. Зязюн, В. Казакова, Я., Н. Кузмина, Н. Никандрова, И. Песталосси, П. Пидкасистого, Ж.Ж. Руссо, В. Сухомлинского, К. Ушинский, М. Ярмаченко и др.).

Ilmiy dunyoda "mustaqil ish" va "mustaqil faoliyat" tushunchalari o'rtasida ziddiyat kuzatilmoqda.

Bu qarama-qarshilikni bartaraf etishga П. Пидкасистий uringan. Olim ta'kidlashicha, mustaqil ish deganda odatda o'qituvchi tomonidan tashkil etilgan, o'quvchilarning belgilangan didaktik maqsadni bajarishga yo'naltirilgan har qanday faol faoliyat tushuniladi.

Bu faoliyat maxsus ajratilgan vaqtda amalga oshiriladi: bilimlarni izlash, ularni tushunish, mustahkamlash, ko'nikma va malakalarni shakllantirish hamda rivojlantirish, bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish.

A.A.Xoliqov o'zining ilmiy ishlarida "Bo'lajak o'qituvchilarning yuksak kasbiy tayyorgarlik darajasi, malakasi, bilimi, madaniy va ma'naviy-axloqiy saviyasining sifatini zamon talablariga javob beradigan darajada oshirib borish; bo'lajak o'qituvchilarni yuqori malakali kadrlar tayyorlash bilan pedagogik faoliyatning nufuzi va ijtimoiy maqomini ko'tarishga o'rgatish" dan iborat deya fikr bildiradi.

**Metodologik asos.** Mustaqil ishlash ko'nikmalari – bu talabning o'z bilimini oshirish, tahlil qilish, izlanish olib borish, o'z-o'zini baholash, vaqtni to'g'ri taqsimlash kabi qobiliyatlarining uyg'unligidir. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi bu ko'nikmalarni egallamagan bo'lsa, u darsga tayyorgarlik, yangiliklarni o'zlashtirish, metodikani zamon talabiga moslashtirishda qiynaladi.

Bu ko'nikmalarni rivojlantirish orqali:

talabalar o'z-o'zini boshqarishni o'rganadi;

kasbiy o'sish ehtiyojini his qiladi;

ijodiy yondashuv va yangilikka ochiqlik shakllanadi.

Oliy ta'lim muassasalarida interfaol o'qitish usullari samaradorligining zaruriy shartlarini qo'yidagilardan kelib chiqqan holda aniqlash mumkin:

-ularning asosiy jihatlari:

-o'z pozitsiyasining amaliy echimi yoki majburiy nazariy asoslanishi;

-nazariy materialni chuqur o'rganish, nazariy ma'lumotlar bilan ishlash usullarini o'zlashtirish;

-ta'lim oluvchilarning qiziqishini oshirish uchun o'z-o'zini tekshirish yoki test xarakteridagi individual topshiriqlardan foydalanish;

-muammoni to'g'ri aniqlash va uning echimini rejalashtirish uchun ekspert bilimlarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan mikrotadqiqotlarni o'tkazish uchun test materialini tanlash;

-barcha talabalarni munozaraga jalb qilish, natijada guruhdagi rollarni taqsimlash, o'qituvchi ishining turli shakllarini puxta o'ylab chiqish zarurati;

Buni ma'lumot beruvchi ma'ruzalar, vebinarlar va konferensiyalar yordamida amalga oshirish mumkin. Qisqa,

oldindan yozib olingan va o'rganilayotgan materialni aks ettiruvchi fotosuratlar bilan to'ldirilgan videoma'ruza o'zlashtirilgan materialni takrorlash uchun juda foydali xizmat qiladi. Shunday qilib, o'quvchilarda mustaqillik kabi shaxsiy fazilatni rivojlantirish bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarining kasbiy kompetentligining bilish tarkibiy qismini takomillashtirish uchun dolzarb tajribani shakllantirish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari bo'yicha, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish uchun kompleks yondashuv zarur. Lingvistik komponentlar orqali o'qituvchilar tilni to'g'ri va samarali ishlatishni o'rganadilar. Interaktiv komponentlar esa ularning o'zaro muloqotga kirishish qobiliyatlarini oshiradi. Pragmatik komponentlar kommunikatsiya maqsadlarini anglash va ularga mos ravishda muloqot qilishni o'rgatadi. Shuningdek, sotsial-madaniy komponentlar turli madaniyatlar va ijtimoiy kontekstlarda muloqot qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Emotsional komponentlar orqali o'qituvchilar o'z emotsiyalarini boshqarish va o'quvchilarning emotsional holatini tushunish qobiliyatlarini oshiradilar. Reflektiv komponentlar esa o'qituvchilarning o'z kommunikativ faoliyatini tahlil qilish va o'z ustida ishlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Zamonaviy ta'limning asosiy tamoyillaridan biri o'qituvchilarni qayta tayyorlash orqali innovatsion ta'lim jarayonini isloh qilish, yuqori malakali va raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash bo'yicha ta'lim muassasalari faoliyatini uyg'unlashtirish, shuningdek, ta'lim jarayoniga pedagogik innovatsiyalarni joriy etishdan iborat.

Pedagogni kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Kasbiy (shu jumladan, pedagogik) kompetentlikka ega bo'lishda o'z ustida ishlash va o'z-o'zini

rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. O'z-o'zini rivojlantirish vazifalari o'zini o'zi tahlil qilish va o'zini o'zi baholash orqali aniqlanadi.

O'z ustida ishlash bosqichlari:

O'z faoliyatini tahlil qilish asosida yutuq va kamchiliklarini aniqlash;

Yutuqlarini boyitish va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan aniq qarorga kelish;

Ushbu qaror bo'yicha amaliy harakatlarni samarali tashkil etish yo'llarini izlash;

Xato va kamchiliklarni takrorlamaslikka intilish;

Qabul qilingan qarorning izchil bajarilishini doimiy nazorat qilib borish;

Pedagogni quyidagi amaliy harakatlari mutaxassis sifatida uning o'z ustida

ishlashini ifodalaydi:

Aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni takomillashtirish;

Pedagogik jarayon samaradorligini, o'zining ishchanlik faolligini oshirish;

Izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni o'zlashtirish;

Ilg'or texnologiya, metod hamda vositalardan xabardor bo'lish;

Faoliyatiga fan-texnikaning so'nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish;

Kasbiy ko'nikma va malakalarini takomillashtirish;

Salbiy pedagogik nizolarning oldini olish, bartaraf etish choralari izlash;

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy faoliyat uchun tayyorgarligi ularda shakllangan va rivojlangan kasbiy ko'nikmalar bilan belgilanadi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ishlash ko'nikmalarini mukammal o'zlashtirib, mehnat bozorida muvaffaqiyatli raqobat imkoniyatiga ega, kasbiy ko'nikmalarini ijodiy

foydalanishga imkon berib, yuqori miqdor va sifat ko'rsatkichlariga erishish imkonini beradi.

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kommunikativ qobiliyatga amal qilishda o'qituvchi kasbiy jihatdan o'zligini anglagan holda talaba shaxsini ko'ra olishi va uning fikr o'ylari, tashvish-quvonchlariga ega bo'la olish, auditoriyaning qiziqishlari va manfaatlarini ilmiy-ijodiy yondoshuvi hozirgi zamon o'qituvchisidan oliy insoniy fazilatlarini talab qiladi. Chunki ta'lim-tarbiya jarayoni Boshlang'ich sinf o'qituvchilardan kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirishga yo'naltirilishi va o'quv jarayonining natijasi ideal bilan qiyoslanishi lozim.

**Xulosa.** Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirish – ta'lim sifatini oshirishning muhim shartidir. Bu ko'nikmalarni rivojlantirish orqali nafaqat individual taraqqiyot, balki jamiyat ehtiyojiga mos, raqobatbardosh pedagog kadrlar tayyorlashga erishiladi. Mazkur maqolada taklif etilgan metodik yondashuvlar va innovatsion g'oyalar ushbu muammoni samarali hal qilishga

xizmat qiladi. Talabanning mustaqil ishi sifatli va samarali bo'lishi uchun, oliy ta'lim muassasasi o'qituvchilari zamonaviy texnologiyalar, usullar va shakllardan foydalanishlari kerak, chunki talabalarni bu turdagi ishga tayyorlash bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorgarligining muhim elementi hisoblanadi va bularning barchasi pedagogik jihatdan qulay ta'lim muhitida sodir bo'lishi lozim. Yangi ta'lim tizimi mustaqil bilim olishga va nostandart vazifalarni echishga qiziqishni rivojlantirishi va shakllantirishi kerak, bu esa shaxsning mustaqillik va mas'uliyat kabi fazilatlarini shakllantirishga imkon beradi. Talabalarning bilish faoliyati xususiyatini hisobga olgan holda tashkil etgan mustaqil ishlari bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy muammolarni ijodiy hal qilishga tayyorlashga yordam beradi, chunki u zarur bilim, ko'nikma va ijodiy faoliyat tajribasini egallashni ta'minlaydi.

#### ADABIYOTLAR

1. Vygotskiy L.S., 1982; Hasanboyeva O., 2019yil.
2. Маркова А.К., И.И. Бакулин., Г.С. Михайлов Соотношение профессиональных способностей к принятию и исполнению решений: Монография /, - М.: Народное образование, 2003. - 101 с)
3. Abdullayeva B.S. Boshlang'ich ta'lim sifat-samaradorligini ilg'or pedagogik va axborotkommunikatsiya texnologiyalari asosida oshirish. "Boshlang'ich ta'lim va jismoniy madaniyat yo'nalishida sifat va samaradorlikni oshirish: muammo va echimlar" xalqaro ilmiy konferensiya. Toshkent, 2017 yil 25 may, 11 bet).
4. Порова Г. В., Рабинович Ф. М., Сахарова Т. Е. методика обучения иностранным языкам в средней школе. м.,1991. 287 с.
5. Rotova N.A. On the issue of developing communicative competence of a future primary general school teacher. European Journal of Social Sciences, 2017. 4: 241-245.
6. Sharipova S. "Boshlang'ich ta'lim metodikasi". – T.: Fan, 2022.
7. G'aybullayeva E. "Pedagogik texnologiyalar". – T.: Ilm Ziyoy, 2021.
8. Qodirov A. "Zamonaviy dars va mustaqil ishlar". – T.: TDPU, 2020.
9. Knowles M. "Self-Directed Learning". – New York: Cambridge, 1975.
10. Candy P.C. "Learner for Life: Learning Autonomy". – Open University Press, 1991.